


QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Qashqadaryo viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 5 tani tashkil qilib, 2016 yilda ular tomonidan 9446 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

2016 yilda Qashqadaryo viloyatiga 2.6 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan. Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 120,1 ming nafarni tashkil qilib, asosiy qismini O'zbekiston fuqarolari – 117,4 ming nafar tashkil qildi. Bu esa o'z navbatida 97,4 foizni tashkil qildi.

1-rasm

2016 yilda Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning MDH, xorijiy va Qashqadaryo viloyati fuqarolari o'rtasidagi ulushi, foizda



2016 yilda Qashqadaryo viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 531 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 844,1 mln. so'mni tashkil qildi.

1-jadval


2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

| | Soni, birlik | Qiymati, mln.so'm |
|--|--------------|-------------------|
| Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami | 531 | 844,1 |
| Ulardan bevosita aholiga | 531 | 844,1 |
| shu jumladan: | | |
| O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga | 387 | 621,6 |
| Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga | 78 | 198,5 |
| O'zbekiston xududi bo'yicha MDH fuqarolariga | 38 | 15 |
| O'zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga | 28 | 9 |

2016 yilda sayyohlik yo'llanmalarining 100,0 foizi (531 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan.

2-rasm

2016 yilda Qashqadaryo viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 28 tani tashkil qildi. Ulardan, 50 foizi bir yulduzli, 20 foizi uch yulduzli va 30 foizi toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalaridir.

3-rasm

2016 yilda mehmonxonalarining toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati

